

RASMIY HUJJATLARNI TARJIMA QILISHDAGI MUOMMO VA YECHIMLAR

Rasulova Rayhona Suhrobjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi (ingliz tili)

302-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada rasmiy hujjatlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishdagi qiyinchiliklar va ularga yechim berib o'tiladi, rasmiy hujjatlar tarjimasining muhimligi, terminlar mosligi, madaniyatlar o'rtasidagi farqlar aniq ko'rsatib beriladi. Qisqa qilib aytganda, rasmiy hujjatlar tarjimasi shunchaki so'zma-so'z tarjima emas, balki matndagi aniqlik, izchillik va terminlar mosligini saqlash kerak bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Bu esa albatta tarjimondan katta mas'uliyat talab qiladi.

Kalit so'zlar. Rasmiy hujjatlar, tarjima, ekvivalentlik, tarjima jarayonidagi muommolar, tarjima strategiyalari, rasmiy uslub.

Rasmiy hujjatlar – bu davlat organlari, idoralar, tashkilot va muassasalar o'rtasida rasmiy aloqalarni tartibga soluvchi yozma hujjatlardir. Ular ma'lum tartibda tuziladi va davlat ishlarini yuritishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Rasmiy ish uslubi davlat va ma'muriy munosabatlarni aks ettirishga mo'ljallangan bo'lib, odatda yozma shaklda ifodalanadi. Rasmiy hujjatlarning asosiy maqsadi ikki yoki undan ortiq tomon o'rtasidagi munosabatlar va shart-sharoitlarni rasmiylashtirish, ma'lumotlarni aniq, to'liq hamda ixcham tarzda uzatishdan iborat. Shuning uchun rasmiy hujjatlar matni aniq, ravshan va lo'nda bo'lishi, undagi faktlar faqat zaruriy ma'lumotlardan iborat bo'lishi lozim. Rasmiy hujjatlar guruhi quyidagi asosiy turlarni o'z ichiga oladi: ariza (iltimosnoma), buyruq (farmoyish xati), xizmat xati, bayonnoma (majlis protokoli), dalolatnoma (holatni tasdiqlovchi hujjat), tavsiyanoma (shaxsni tavsiya etuvchi hujjat), akt (ish yoki hodisa

bayonnomasi), ma'lumotnoma, tushuntirish xati, hisobot, reja va axborotnoma kabilar. Masalan, ariza – muayyan masalani ko'rib chiqish uchun mas'ul shaxs yoki muassasaga yozilgan iltimosnoma, shikoyat yoki taklif xatidir. Buyruq va farmoyishlar tashkilot faoliyatini boshqarish bo'yicha rahbar tomonidan beriladigan yozma ko'rsatmalar bo'lsa, hisobotlar tashkilot faoliyatini belgilangan muddat va shaklda qayd etib boruvchi hujjatlardir. Har bir rasmiy hujjat o'ziga xos tarkibiy qismlarga ega. Umuman olganda, rasmiy hujjatlarda kirish (asoslovchi) qismi, asosiy (farmoyish) qismi va xulosa qismidan foydalaniladi. Masalan, buyruq hujjat turining kirish qismida buyruqning sababi va maqsadi ko'rsatiladi, asoslovchi hujjat yoki qonun nomi, raqami va sanasi keltiriladi; asosiy (farmoyish) qismida esa rahbar belgigan topshiriq yoki buyrug'ning bandlari aniq bayon qilinadi. Agar asoslash talab qilinmasa, buyruq bevosita farmoyish bandlari bilan boshlanishi ham mumkin. Rasmiy hujjatlar yozish va tahlil qilish ko'nikmalarini egallash kompetensiyasi pedagogik muhitda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu kompetensiya matnni qay tarzda tuzishni, qaysi til va uslub elementlaridan foydalanishni hamda hujjat talablari va normativlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Talaba rasmiy hujjatlarni o'qib o'rganish orqali nafaqat grammatik va leksik jihatdan, balki hujjat tuzish me'yorlari va mantiqiga ham ega bo'ladi. Jumladan, she'riy yoki og'zaki nutqdan farqli o'laroq, rasmiy hujjatlarda aytilayotgan har bir fikr aniq tasdiqlanishi, va'zma-va'z, ma'lumotlar mukammal va maqsadga muvofiq berilishi lozim.

Rasmiy hujjat turlari; Konstitutsiya, qonun, farmon, qaror, buyruq, nizom, yo'riqnoma, farmoyish.

Rasmiy hujjatlar tarjimasida yuzaga keladigan muommolar

1. Terminologik aniqlik muammosi

Eugene Nida rasmiy va huquqiy matnlar tarjimasida formal equivalence tamoyilini asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, bunday matnlarda nafaqat mazmun, balki huquqiy funktsiya va terminologik aniqlik ham saqlanishi shart. Aks holda hujjatning yuridik kuchi o'zgarib ketishi mumkin.

Misol (terminologik noaniqlik) Inglizcha rasmiy hujjat:

The agreement shall enter into force upon signature.

Noto'g'ri tarjima:

Shartnoma imzolanganidan keyin kuchga kiradi.

Bu tarjimada “enter into force” iborasining huquqiy mazmuni to'liq ochilmagan. Chunki ingliz huquqiy diskursida bu ibora shartnomaning rasman majburiy hujjatga aylanishini bildiradi.

Nida asosidagi to'g'ri tarjima:

Ushbu shartnoma imzolangan paytdan boshlab huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Bu yerda termin huquqiy funksiya jihatdan to'liq ekvivalent bo'ladi.

2. Modal fe'llar va majburiyat darajasi;

Mona Baker rasmiy hujjatlar tilida modal fe'llar (shall, must, may) normativ kuchga ega birliklar ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bu fe'llarni noto'g'ri tarjima qilish huquqiy majburiyatni yumshatib yuboradi yoki kuchaytirib yuboradi, bu esa tarjimada jiddiy xato hisoblanadi.

(shall modal fe'li) Inglizcha:

The applicant shall submit the documents within ten days

Baker nazariyasiga mos tarjima:

Arizachi hujjatlarni o'n kun ichida taqdim etishi shart.

Bu yerda “shall” fe'lining normativ va majburiy ma'nosi to'liq saqlangan.

3. Passiv konstruksiyalar muammosi

Christina Schäffner siyosiy va rasmiy matnlarda passiv nisbat mas'ul shaxsni yashirish yoki neytral ohang yaratish vazifasini bajarishini ko'rsatadi. Ingliz tilida passiv shakl tizimli ishlatiladi, o'zbek tilida esa tarjimada bu ko'pincha mantiqiy noaniqlik keltirib chiqaradi. Misol (passiv shakl)

Inglizcha: The contract may be terminated in case of violation.

So'zma-so'z tarjima:

Qoidabuzarlik sodir bo'lsa, shartnoma bekor qilinishi mumkin.

Bu gapda kim tomonidan bekor qilinishi noaniq. Schäffner yondashuviga mos tarjima: Qoidabuzarlik sodir etilgan taqdirda, shartnoma vakolatli organ tomonidan bekor qilinishi mumkin. Bu variantda passiv shakl o'zbek rasmiy uslubiga mos ravishda aniqlashtirilgan.

4. Rasmiy uslub va diskurs qat'iyligi

Paul Chilton rasmiy va siyosiy diskursni hokimiyatni ifodalovchi til shakli deb izohlaydi. Unga ko'ra, rasmiy hujjatlar tilida:

emotsiya bo'lmasligi

qat'iy sintaktik tuzilma

huquqiy ohang saqlanishi shart

Tarjimada bu xususiyatlar buzilsa, matn rasmiy maqomini yo'qotadi.

Misol (uslubiy qat'iylik) Inglizcha:

Failure to comply with the requirements shall result in penalties.

Agar talablar bajarilmasa, jazolar bo'ladi. Bu variant rasmiy diskursga xos emas.

Chilton nazariyasiga mos tarjima:

Belgilangan talablarning bajarilmasligi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka olib keladi. Bu yerda rasmiylik va huquqiy kuch saqlangan.

5. Huquqiy- madaniy tafovutlar

Mona Baker huquqiy tizimlar o'rtasidagi farqlarni tarjimada cultural and legal gaps deb ataydi. Ingliz huquqiy tizimidagi ayrim tushunchalar o'zbek huquq tizimida mavjud emas va ular to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi. Misol (madaniy-huquqiy tafovut).

This case is governed by common law principles.

“Common law” tushunchasi O'zbekiston huquq tizimida to'liq ekvivalentga ega emas. Baker tavsiya qilgan yechim:

Ushbu ish umumiy huquq (common law) tamoyillari asosida ko'rib chiqiladi.

Qavs ichida berilgan izoh ilmiy va rasmiy tarjima uchun eng maqbul strategiya hisoblanadi.

Rasmiy hujjatlarni tarjima qilish strategiyalari

1. Formal ekvivalentlik uslubi (Formal Equivalence)

Eugene Nida rasmiy va huquqiy hujjatlar tarjimasida formal ekvivalentlik eng muhim uslub ekanini ta'kidlaydi. Bu uslubda tarjimon: matnning grammatik tuzilishini, terminologik aniqligini va huquqiy shaklini maksimal darajada saqlaydi.

Bu yondashuv rasmiy hujjatlarning yuridik kuchini saqlab qolish uchun zarur. Misol;

This agreement shall be valid for a period of five years.

Formal ekvivalent tarjima: Ushbu shartnoma besh yil muddat davomida amal qiladi. Bu yerda “shall be valid” → “amal qiladi” shaklida rasmiy-huquqiy ekvivalent saqlangan.

2. Funktsional ekvivalentlik uslubi (Functional Equivalence)

Mona Baker rasmiy tarjimada har doim soʻzma-soʻzlik yetarli emasligini, baʼzan funktsiyani saqlash ustuvor boʻlishini taʼkidlaydi. Funktsional ekvivalentlikda:

gap tuzilishi oʻzgarishi mumkin, lekin huquqiy vazifa va taʼsir saqlanadi. Misol

The applicant is required to submit the form.

Arizachi shaklni topshirishi talab qilinadi Soʻzma-soʻz tarjima qilinganda noaniqlik paydo boʻlishi mumkin. Shuning uchun ham funktsional ekvivalent tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Arizachi belgilangan shaklni taqdim etishi shart. Bu variant oʻzbek rasmiy-huquqiy uslubiga koʻproq mos.

3. Neytral va passiv uslub

Christina Schäffner rasmiy va siyosiy hujjatlar tarjimasida neytrallik va xolislik asosiy uslubiy belgi ekanini taʼkidlaydi. Shu sababli:

passiv nisbat,

shaxs koʻrsatilmagan konstruktsiyalar keng qoʻllanadi

The decision was adopted on 15 May. Ushbu gap passive shaklda boʻlib uni soʻzma-soʻz emas, balki neytral passive shakldan foydalanib tarjima qilish rasmiy uslub talablariga mos hisoblanadi. Bu yerda qarorni kim qabul qilgani koʻrsatilmagan, bu rasmiy uslub talabi boʻlib; Qaror 15- may kuni qabul qilindi, shu shaklda tarjima qilinadi.

4. Diskursiy qatʼiylilik va rasmiylik uslubi

Paul Chilton rasmiy hujjatlar tilini hokimiyat va nazorat diskursi sifatida talqin qiladi. Bu uslubda:

hissiy soʻzlar yoʻq,

murakkab, ammo aniq sintaksis ishlatiladi,

qat'iy normativ ohang saqlanadi.

Non-compliance with the regulation shall result in legal liability.

Rasmiy diskursga mos tarjima:

Mazkur talablarning bajarilmasligi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka olib keladi. Bu variant rasmiy diskursning normativ va buyruq ohangini saqlaydi.

5. Izohli tarjima uslubi (Explicitation / Explanation)

Baker rasmiy tarjimada huquqiy-madaniy tafovutlar mavjud bo'lganda izohli tarjima eng to'g'ri uslub ekanini ko'rsatadi. Bu: tushuncha saqlanadi, noto'g'ri talqin xavfi kamayadi.

The case is governed by common law. Izohli tarjima:

Ushbu ish umumiy huquq (common law) tamoyillari asosida ko'rib chiqiladi.

Qavs ichidagi izoh rasmiy tarjimada qabul qilingan ilmiy uslub hisoblanadi.

6. Normativ-rasmiy uslub (Uzbek official style)G. A. Mamarasulova o'z tadqiqotlarida o'zbek rasmiy tarjimalarida:

normativ iboralar, qat'iy qoliplar, rasmiy birliklardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi.

This document certifies that...O'zbek rasmiy uslubida:

Mazkur hujjat shuni tasdiqlaydiki, ... ibora o'zbek rasmiy hujjatlarida standart qolip hisoblanadi.

Xulosa

Rasmiy hujjatlar tarjimasi tarjimashunoslikning eng mas'uliyatli sohalaridan biri bo'lib, bunda aniqlik va rasmiylik asosiy talab hisoblanadi. Bunday hujjatlar huquqiy va normativ kuchga ega bo'lgani sababli, tarjimada yo'l qo'yilgan har qanday noaniqlik

mazmunning noto‘g‘ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Rasmiy tarjimada uchraydigan asosiy muammolar qatoriga terminologik aniqlikni ta’minlash, ingliz tilidagi modal fe’llar orqali ifodalangan majburiyat darajasini o‘zbek tilida to‘g‘ri aks ettirish hamda grammatik va uslubiy tafovutlarni hisobga olish kiradi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek huquqiy tizimlari o‘rtasidagi farqlar ayrim tushunchalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish imkonini bermaydi va bu holatda izohli yoki funksional tarjima usullariga murojaat qilish zarur bo‘ladi. Shu bois rasmiy hujjatlar tarjimasida tarjimon nafaqat til bilimiga, balki huquqiy bilim va rasmiy uslub me’yorlarini chuqur bilishga ham ega bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov, Z. M. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2014. Rasmiy va normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasi, turlari va huquqiy kuchi: 45–52-betlar.
2. Karimov, I. A. Huquqiy hujjatlar tizimi. Toshkent, 2005. Huquqiy hujjatlarning tizimlilik va rasmiylik talablari: 18–25-betlar.
3. Mamarasulova, G. A. (2023). “Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasida stilistik muammolar.” O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali. Rasmiy uslub, stilistik qat’iylilik va normativ iboralar tahlili: 8–13-betlar.
4. Axmadjonova, Z. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi. Zenodo platformasi. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15589> Rasmiy hujjatlar tarjimasida terminologik muammolar: 3–6-betlar.
5. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden: E. Formal ekvivalentlik nazariyasi va rasmiy matnlar tarjimasi: 12–14-betlar, 22–28-betlar.
6. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. London & New York: Routledge. Funksional ekvivalentlik va izohli tarjima strategiyalari: 26–42-betlar, 56–58-betlar.
7. Chilton, P. (2004). Analysing Political Discourse: Theory and Practice. London: Routledge. Rasmiy va siyosiy diskursning til xususiyatlari: 3–7-betlar, 41–45-betlar.